

GENDER TILSHUNOSLIGI NAZARIY ASOSLARI

Nazarova Mukaddas Yuldashbayevna

Qoraqolpoq davlat universiteti

10.00.06-Qiyosiy adabiyotshunoslik,

chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

ixtisosligi tayanch doktoranti

So'ngi davrlarda ijtimoiy-gumanitar fanlarning derlik barcha sohalarida antropotsentrizm va individual shaxs parametrlariga bildirilayotgan qiziqishning ortishi til va jins o'rtasidagi o'z aro munosabatlarning dolzarb masalalari yaqin kelajakdham o'z ahamiyatligini yo'qotmasligidan darak beradi. Buning natijasida zamonaviy nutq madaniyatida kuzatilayotgan bir qator lingvistik hodisa va jarayonlarni tahlil qilish va izohlashning kontseptual apparati va uslubiy asosini yaratuvchi gender tilshunosligining rivojlanishi ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida alohida o'rin egallaydi.

Feministik tilshunoslik gender tilshunosligining alohida fan sifatida vujudga kelishi va rivojlanishi asosi bo'lib xizmat qiladi. Bu ikkala fan bir biriga bog'liq bo'lib lekin ular tanqidiy tilshunoslik konseptlari doirasida farqlanadi. Gender tilshunosligi asosan tildagi gender stereotiplari va ulardagi ma'lum tengsizliklarni o'rgansa, feministik tilshunoslik til va nutqni gender nuqtai nazaridan o'rganadi. U til ijtimoiy va gender tengsizliklarini qanday aks ettirishi va uni saqlab turishini o'rganadi. Feministik tilshunoslar tilning turli jihatlarini, jumladan grammatika, lug'at, semantika va ritorikani tahlil qilib, tilning qaysi tuzulmalarida gender tengsizliklar mavjud ekanligini o'rganishadi.[1]

Xozirgi davrda feministik tilshunoslikni ikkita asosiy oqimga bo'lib qarash mumkin. Birinchi oqim tildagi ayollarning o'rnini ikkinchi darajali qilib ko'rsatilishi va ularning kamsitilishini tadqiq qiladi. Bu oqim olimlarining fikricha til dunyoda erkaklarning ustunligini ko'rsatuvchi qurol, u erkaklarning tutgan o'rnini va darajasi kuchaytiruvchi vosita deya tariflanadi. Bundan ko'rinadiki patriarxat jamiyatimizdagi amaldagi derlik barcha tillar erkak tili sanaladi. Tildagi ayol obrazi esa salbiy ma'no va xususiyatlar bilan gavdalantirilgan.

Bu yo'nalishning asosiy tadqiqot obyekti sifatida ma'lum tilning leksikasi ko'rib chiqiladi, chunki aynan lug'at tildagi ayollarga qaratilgan salbiy ta'riflarni aks etib turadi.

Ko'plagan tillarning frazeologiyasiga e'tibor beradigan bo'lsak ayollar obrazi salbiy sifatlarda keltirilgan, erkaklar esa ijobiy obrazda berilgan. Ayol referentga

TIL HÁM AWDARMA MÁSELELERI

V ilimiy maqalalar toplami

erkak sifatlarini qo'llash, ayolning obro'sini birmuncha ko'tarsa, erkaklarga ayollarga taaluqli sifatlarini qo'llash buning aksi bo'lib va bu holat erkakni kamsitish deya qabul qilinadi. Tilshunos olim O.V Kolosovanning ingliz va qo'shma shtatlar tadqiqotlariga asoslanib qilingan tahlilida erkak referentidagi ijobiy baholash xususiyatlarining kontseptual maydoni ayol referentidagi atributiv xususiyatlarning kontseptual maydonidan ancha katta degan xulosaga keladi. [2]

Shuningdek, bu yo'nalishning tadqiqot maydoni jins toifasining kontseptual shartlilikini o'rganishni ham o'z ichiga oladi. Bunda aynan *мужской род* (erkak jinsi)ga tegishli, ammo ma'no jihatidan neytral jinsni anglatuvchi otliq so'zlar (bularga asosan kasb nomlari kiradi) o'z neytralligini saqlaganmi yoki hali ham erkak referantini anglatyabdimi degan savolni tahlil qilish nazarda tutiladi. Shu o'rinda quyidagi voqeani misol keltirsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Ota va o'g'il avtohalokatga uchrashadi. Voqea joyida ota vafot etadi o'g'ilni esa og'ir ahvolda kasalxonaga yetkazishadi. Jarroh bolani ko'rganida u jarrohlik amaliyotini o'tkazishdan bosh tortadi va "bu mening o'g'lim va men hech narsa qila olmayman" deydi. Bu voqeani eshitgan ko'pchilikda bu qanaqasi otasi vafot etgan bo'lsa degan savol tug'iladi, lekin ular jarroh ayol bo'lishi mumkinligini va u bolaning onasi ekanligi hech kimning hayoliga kelmaydi. [3]

A.P Nilsen o'z tadqiqotlarida keltirishicha Webster lug'atida 517 ta ikkala jinsga ham tegishli kasbnomlari, 385 tasi faqat erkak jinsiga oid va 132 ta faqat ayol jinsiga oid kasb nomlarini aniqlagan. Buning sababi qilib u shu kasbnomlarini nomlagan erkaklar bo'lgan deya ta'kidlagan. Bundan tashqari tarixda oilani ta'minlavchi erkak bo'lganligi, ularga aynan shu vazifa qo'yilganligi, ayollar asosan uyda qolib bola tarbiyasi bilan shug'illanganligi ham bunga o'z ta'sirini ko'rsatgan. [4]

Endi ikkinchi yo'nalishga to'qtalsak, feministik tilshunoslikning ikkinchi yo'nalishi diskursiv yo'nalish deya nomlanadi. Mazkur yo'nalish tadqiqotchilari "patriarxat mafkurasi qay yo'sinda insonlar ongiga singishiga hamda diskursda ayollar qanday qilib diskriminaciyaga uchrashi va qaysi til strategiyalari ayollarga o'z fikrlarini ayta olishiga, ularni inobatga olinishiga olib keladi degan savollarga javob izlaydi. Ular til va jamiyatni bir biriga uzviy bog'angan degan fikrni olg'a surishadi.

Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar har xil turdagi dialoglarni ya'ni oiladagi suhbatdan tortib televizion tok shoulargacha taxlil qilishni o'z ichiga oladi.

Bu yo'nalishda "род" gender tushunchasiga o'zgacharoq yondashiladi. Ushbu termin bir tarafdin jinsga bog'liq, yana boshqa tarafdin jamiyat bilan uzviy bog'lanadi. Jins bu biologik hodisa bo'lib aynan jinsiy farqlarni nazarda tutganda foydalaniladi. Gender termini esa kengroq tushunchaga ega bo'lib aynan ayollik yoki

TIL HÁM AWDARMA MÁSELELERI

V ilimiy maqalalar toplami

erkaklikni aytganda foydalaniladi. Inson ayol yoki erkak bo'lib tug'ilishi mumkin lekin gender aynan jamiyattagi ayollik va erkaklikni, ularning tutgan o'rni, madaniy farq, dunyoqarash, aynan qaysidir jinsga xos bo'lgan jihatlarni tushintirib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Горошко Е.И. Гендерная проблематика в языкознании.
[URL:http://www.owl.ru/win/books/articles/goroshko.htm](http://www.owl.ru/win/books/articles/goroshko.htm)
2. Колосова О.А. Когнитивные основания языковых категорий (на материале современного английского языка) : дис. ... д-ра филол. Наук / О.А. Колосова. – М. :
3. В. И. Коваль Язык и текст в аспекте лингвистики. Гомель 2007
4. Nilsen A.P. Linguistic sexism as a social issue/ National Council of Teachers of English, 1977 – p.27-42